

## TADBIRLAR ORQALI TALABALARNING KASBIY MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHLTLARI

*Xalimova Mashrabxon Vohidovna*

*Andijon davlat pedagogika instituti,  
pedagogika va psixologiya kafedrasi mudirasi,  
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor.*

*Maxmudova Feruzaxon Abduraxmon qizi*

*Andijon davlat pedagogika instituti,  
pedagogika va psixologiya yo'nalishi  
1-bosqich magistranti, Andijon tumani  
16-umumiy o'rta ta'lim maktabida  
oliy toifali ingliz tili o'qituvchisi.*

[feruzochka1998@gmail.com](mailto:feruzochka1998@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada OTMlarda auditoriyadan tashqari tadbirlarning talaba yoshlar faoliyatidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, OTMlarda tashkil etiladigan tadbirlarning talabalarning o'quv va kasbiy motivatsiyasi rivojlanishiga psixologik ta'siri haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** tadbir, darsdan tashqari tadbir, motiv, ta'lim motivatsiyasi, kasbiy motivatsiya, muloqot.

**Аннотация:** В данной статье подчеркивается значение внеаудиторных мероприятий в деятельности студентов и молодежи в высших учебных заведениях. Также представлена информация о психологическом влиянии мероприятий, организуемых в вузах, на развитие учебной и профессиональной мотивации студентов.

**Ключевые слова:** мероприятие, внеклассное мероприятие, мотив, учебная мотивация, профессиональная мотивация, общение.

**Abstract:** This article highlights the importance of non-auditory events in the activities of students and youth in higher education institutions. Also, information is provided about the psychological impact of events organized in HEIs on the development of students' educational and professional motivation.

**Key words:** event, extracurricular event, motive, educational motivation, professional motivation, communication.

Dunyo ta'lim tizimini axborotlashtirish sharoitida bo'lajak kadrlarni kasbiy bilimlarini rivojlantirishni xalqaro talablar asosida yangilab borish, talabalar kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning psixologik, pedagogik omillarini aniqlashtirish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu vazifalarni hal qilishda

pedagogik shart-sharoitlar yaratish va o‘qitishning sifat va samaradorligini oshirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash dolzarb hisoblanadi. Talabalari baxtli va o‘qishga intiladigan Oliy ta’lim muassasalari har doim nafaqat akademik jihatdan yaxshi natijalar beradi, balki ular jamiyat va butun dunyo uchun foydali inson resurslariga aylanadi. Shuning uchun, talabalarning nafaqat dars vaqtini balki ularning darsdan tashqari bo‘sh vaqtlarini samarali mashg‘ulotlar bilan boyitish ham OTMning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Talaba va yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va ularning iste’dodini ro‘yobga chiqarish maqsadida 2023-yil 9-avgustda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “Talaba va yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish tadbirlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 351-sonli buyrug‘i tasdiqlandi. Shuningdek, ijtimoiy-madaniy tadbirlar, sport musobaqalari hamda intellektual tanlovlar, festivallarni tashkil etish, talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan, ijodiy loyihalarni amalga oshirish maqsadida “Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi tashkil etilishi to‘g‘risida” 2024-yilning yanvar oyida Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qildi. Zero, talabalarni har tomonlama yetuk, o‘z kasbining mutaxassisi etib tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish, ularda faol hayotiy mavqeni shakllantirish, o‘zlashtirish va bilim sifatini oshirish ko‘p jihatdan auditoriyadan tashqari tashkil qilingan ishlarga ham bog‘liq. Bunday tadbirlar talabalar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni ham to‘ldiradi, ularning dunyoqarashi to‘g‘ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko‘maklashadi, nazariy bilimlarning amaliyot ishlab chiqarishi bilan bog‘lanishiga zamin yaratadi.

Hozirgi zamon ijtimoiy psixologiyaning maxsus sohalari aynan bo‘sh vaqtdagi tadbirlarning shaxslarning xulq-atvoriga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi.<sup>1</sup>

Ta’lim muassasasi – bu shaxsning nazariy yoki amaliy xarakterga ega nimadir o‘rganadigan joyidir. Har bir ta’lim muassasasi o‘z sohasi bo‘yicha eng zo‘r bo‘lishga intiladi, lekin insonning qayta ishlashi yoki o‘qishi uchun o‘z kuchini tiklashi juda zarurligini chetlab o‘tolmaymiz. Muntazam bir xil hayot zerikarli hisoblanib, inson bu hayotda biror turdagi, masalan, sport kabi ko‘ngilochar mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishi kerak.

Ba’zi muassasalar bunday faoliyat turlarini o‘tkazishni muhim deb hisoblaydi, ba’zilari esa yo‘q, shuning uchun bu muassasalarning o‘ziga bog‘liq. Maktab yoki institutning ta’lim oluvchilari ham bir xil emas, ba’zilar o‘z ta’lim muassasalarida tadbir o‘tkazishni muhim deb bilishadi. Boshqa faqatgina o‘qish uchun bo‘lganlari esa bunday tadbirlarga ahamiyat ham bermaydilar. Ammo sport bilan shug‘ullanadigan va

---

<sup>1</sup> Benckendorff, P., & Pearce, P. L. The Psychology of Events. In S. Page & J. Connell (Eds.), Handbook of Events. New York: Routledge. 2012

sport bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan talabalar har doim sport tadbirlari o'tkazilishini kutishadi.

Har bir ta'lim muassasasi uchun har oy yoki haftada o'zlariga qulayliklarga ko'ra ko'ngilochar festival, sport musobaqasi va hokazo tadbirlarning roli juda muhim, chunki maktab yoki OTM ta'lim oluvchilari har kuni faqat nazariy darslarda qatnashishdan charchashadi, shuning uchun ular o'qishdan tashqari qo'shimcha biror narsa qilishni xohlashadi. Shunday qilib, ular sport bilan shug'ullanish, rasm chizish, qo'shiq aytish, raqsga tushish va hokazolar bilan shug'ullanadilar, bu ularni xursand qiladi va natijada ular o'zlarining o'qishlariga avvalgidan ko'ra ko'proq e'tibor berishlari mumkin. Sport, san'at va hokazolar insonni yoshartiradi va ongini tozalaydi, shunda ular o'z maqsadlariga diqqatini jamlashlari mumkin. Sinfda diqqatli bo'lish juda qiyin, shuning uchun talabalar darsdan qochish uchun turli sabablarni topadilar.

Shu sababli, talabalarni o'qishga rag'batlantirishlari, kuch va ishtiyoq bilan to'ldirishlari uchun ta'lim muassasasida tadbirlar haqiqatan ham kerak. Biror kishining ongi uzoq vaqt davomida bir narsa ustida ishlay olmaydi, chunki ular tez zerikib qolishadi, shuning uchun shaxs odatdagi yoki odatiy ishdan farq qiladigan narsani topishga harakat qiladi.

Muvaffaqiyatli ta'limning sharti motivatsiya bo'lib, u talabani o'z bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, tashqi omillardan ishonch va mustaqillikni oshirish maqsadida muayyan faoliyatga undaydi. Universitetlardagi talabalar faoliyatini ishonch bilan ham ta'limiy va ham kasbiy deb atash mumkin. O'rta maktab o'quvchilari maktabni tugatib, universitetlarga kirgandan so'ng, ular o'zini o'zi tasdiqlash bilan bog'liq motivlarning o'zgarishi bilan ajralib turadi. Bu shuni anglatadiki, kasbiy motivlar nafaqat o'quv motivatsiyasi tarkibiga kiritiladi, balki uning ajralmas tarkibiy qismiga aylanadi, o'qitish motivlari bilan o'zaro ta'sir qiladi va ta'limiy va kasbiy motivatsiyani shakllantiradi.

Olimlar motivatsiya muvaffaqiyatli o'rganishning yetakchi omillaridan biri ekanligini isbotladilar. Ammo bu omilning xususiyatlari va uning samaradorligi, ya'ni talaba o'tadigan o'quv jarayonining turli bosqichlarida farqlanadi. Birinchi kursdan oxirgi kursgacha ta'lim va kasbiy faoliyatning o'zi va uning motivatsiyasi o'zgaradi. Masalan, ularning umuman yangi vaziyatga, xususan, ta'lim faoliyatiga moslashish jarayoni birinchi kurs talabalari uchun o'ziga xos hisoblanadi.

Har qanday kasbiy ta'limning asosiy muammosi talabaning haqiqiy o'quv faoliyatidan uning kasbiy faoliyatini o'zlashtirishga o'tishidir. Faoliyatning umumiy nazariyasi pozitsiyasidan bunday o'tish birinchi navbatda motivlarni o'zgartirish chizig'i bo'ylab o'tadi, chunki bu faoliyatning konstruktiv belgisi bo'lgan motiv hisoblanadi. Agar kognitiv motivlar o'quv faoliyatiga xos bo'lsa, unda kasbiy motivlar amaliy faoliyatga xosdir. Shunday qilib, talabaning o'quv va kognitiv faoliyatidan mutaxassisning kasbiy faoliyatiga o'tish asosan kognitiv motivlarni kasbiy motivlarga

aylantirish muammosidir. Shu sababli motivatsiya talabalarga shaxsiy hayotida yoki o‘qishida, kelajakdagi faoliyatida yoki martabasida nimani yoqtirishlarini bilib olish va o‘z-o‘zini anglash uchun olgan bilimlaridan foydalanishni ta‘minlashi zarur.<sup>2</sup>

Ta‘lim faoliyatida kasbiy motivatsiyani ko‘rib chiqayotganda, motiv tushunchasi maqsad va ehtiyoj tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqligini ta‘kidlash kerak. Shaxsning shaxsiyatida ular o‘zaro ta‘sir qiladi va motivatsion soha deb ataladi. Adabiyotlarda bu atama barcha turdagi motivlarni o‘z ichiga oladi: ehtiyojlar, qiziqishlar, maqsadlar, rag‘batlantirishlar, motivlar, moyilliklar, munosabatlar. Har qanday boshqa turdagi kabi, kasbiy motivatsiya ham u ishtirok etadigan faoliyatga xos bo‘lgan bir qator omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, uni ta‘lim tizimining o‘zi, ta‘lim muassasasi belgilaydi; ikkinchidan, - o‘quv jarayonini tashkil etish; uchinchidan, talabaning sub'ektiv xususiyatlari; to‘rtinchidan, - o‘qituvchining sub'ektiv xususiyatlari va birinchi navbatda, uning talabaga, mehnatga bo‘lgan munosabatlari tizimi; beshinchidan,- o‘quv fanining o‘ziga xos xususiyatlari.<sup>3</sup>

Ma‘lum faoliyat turiga nisbatan barqaror qiziqishlar qo‘zg‘atuvchi turtki (kuch) sifatida kasbiy motivlarini vujudga keltiradi, va shu kasbga tegishli nazariy bilimlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishni ta‘minlashga xizmat qiladi. Talabada kasblarning muayyan sohasiga, u yoki bu faoliyat turiga qiziqishning tug‘ilishi ko‘p jihatdan shaxsni qay tariqa shakllanish imkoniyatini belgilaydi. Kasbga qiziqish motiv doirasida o‘sadi, bilimlar bilan o‘zaro ta‘sir etadi, ular o‘zaro uzviy bog‘lanib ketadi. Motiv, motivatsiya talabaning xatti-harakati ichki regulyatsiyasi funksiyasini bajarib, ehtiyojni qondirish, xoxish - istak, ezgu niyat, orzu tilakni amaliyotda ro‘yobga chiqarishning bosh omili bo‘lib hisoblanadi. Motiv va motivatsiya faqat kasbga doir bilimlarni o‘zlashtirish, kasbiy ko‘nikmalari va malakalarini egallash bilan cheklanib qolmasin, balki talaba shaxsining xulq-atvori, ya‘ni shaxsga oid xususiyatlarining namoyon bo‘lishini ham izohlashga xizmat qilsa maqsadga muvofiq hisoblanadi.<sup>4</sup>

Auditoriyadan tashqari ta‘lim-tarbiya ishlari tizimida ham yoshlarning tafakkuri, faolligi va mustaqilligini o‘stirish orqali ularning kasbga bo‘lgan qiziqishi va ehtiyojlarini shakllantirishni tizimli amalga oshirish imkoniyatlari katta. Masalan, Maykl Morgan (2009) tadbirlarda qatnashish bilan bog‘liq bo‘lgan ichki motivlarni uch toifaga bo‘ladi: (1) zavqlanish bilan bog‘liq shaxsiy manfaatlar (masalan, yangilik topish yoki stressdan qochish) va yutuq (masalan, qiyinchiliklarni yengish orqali o‘shish); (2) oila, xodimlar bilan va boshqa tashrif buyuruvchilar bilan ijtimoiy muloqot; va

<sup>2</sup> BAXTIYOROV R. TALABALARDA O‘QUV MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI. O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI. 2023

<sup>3</sup> Odamova O. K. PSIXOLOGIK XIZMATLAR ORQALI TALABALARNING TA‘LIM MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISH. Journal of science-innovative research in Uzbekistan. 2-son.2024

<sup>4</sup> Meyliyev S. N. TALABALARDA KASBIY KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH. № I (2023): «СОВРЕМЕННАЯ СОЦИАЛЬНАЯ ПСИХОЛОГИЯ: ТРАДИЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ» I - МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

(3) shaxsiy hikoyalar va umumiy madaniy qadriyatlardan kelib chiqqan kengroq ramziy ma'nolar.<sup>5</sup>

Talabalik davrida shaxsiy rivojlanishning eng muhim sharti muloqotdir. Shaxs rivojlanishining ushbu bosqichida muloqot ta'lim faoliyati bilan bir qatorda yetakchi faoliyatdir. Muloqot sohasida yangi o'zgarishlar ro'y beradi. Davra suhbat, debat, ekstempora va ijodiy uchrashuvlarda talabalar muloqot qilish imkoniga ega bo'ladilar.

Yosh davrlari psixologiyasi nuqtai nazaridan, talaba yoshida ichki dunyo va o'z-o'zini anglash xususiyatlari o'zgaradi, psixik jarayonlar va shaxs xususiyatlari rivojlanadi va qayta tuziladi, hayotning hissiy-irodaviy tuzilishi o'zgaradi. Aynan yoshlikda boshqalarning holatlariga hamdard bo'lish, bu holatlarni o'zinikidek his qilish qobiliyati yanada keskinlashadi. Darslardan tashqari, kino, spektakl va konsertlar nafaqat talabalar kayfiyatini ko'taradi, balki hayotning yangicha ko'rinishlarini his qilishlariga yordam beradi.

Bundan tashqari, suhbatlar, kechalar, to'garak mashg'ulotlari, munozara, uchrashuv, kitobxonlar konferentsiyasi kabi tarbiyaviy tadbirlarda ham yoshlar faol fikr-mulohaza yuritishlari ularning kasbiy tasavvurlarini aniqlashtirish imkonini beradi. Ya'ni, “Kasb haqida tasavvurga egamisiz?”, “Qaysi kasb sizni o'ziga jalb etadi?”, “Kasb tanlashda nimalarga e'tibor qaratish lozim?” kabi savollarga javob topish hamda turli mavzudagi munozaralarda faol qatnashishiga, kasb haqidagi ilmiy tushuncha va fikrlarni o'zlashtirib olishlariga erishishga yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baxtiyorov R. TALABALARDA O'QUV MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI. O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI. 2023
2. Benckendorff, P., & Pearce, P. L. The Psychology of Events. In S. Page & J. Connell (Eds.), Handbook of Events. New York: Routledge. 2012
3. Odamova O'. K. PSIXOLOGIK XIZMATLAR ORQALI TALABALARNING TA'LIM MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISH. Journal of science-innovative research in Uzbekistan. 2-son.2024
4. Meyliyev S. N. TALABALARDA KASBIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH. № I (2023): «Современная социальная психология: традиции и перспективы» I - международная научно-практическая конференция.
5. Botiraliyeva, A. M., & Zaylobiddinovich, A. E. (2023). TECHNOLOGY FOR DIAGNOSING STUDENTS'COMPETENCE IN WORKING WITH

---

<sup>5</sup> Benckendorff, P., & Pearce, P. L. The Psychology of Events. In S. Page & J. Connell (Eds.), Handbook of Events. New York: Routledge. 2012

INFORMATION BASED ON ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES. IMRAS, 6(7), 370-375.

6. Kadyrov, V. A., Botiraliyeva, A. M., & Axunov, U. R. (2022). THEATRE OF ACTION-A DIDACTIC CONCEPT FOR THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL EDUCATION AND CREATIVITY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(5), 960-963.
7. Artikova, M. (2021). DEMAND FOR A COMPETENCY-BASED APPROACH TO THE ACTIVITIES OF TEACHERS IN MODERN CONDITIONS. *InterConf*.
8. Artikova, M. B. (2019). EXPERIENCE IN DEVELOPING ENTREPRENEURSHIP SKILLS IN FOREIGN COUNTRIES. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(7), 250-255.
9. Mirzayev, O. K. (2024). HISTORICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF ELEMENTARY ENTREPRENEURIAL SKILLS OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 5(02), 167-171.
10. Xusanovich, M. O. (2021). Formation Of Elements Of Entrepreneurial Activity In Pupils Of The Preschool Educational Organization. *JournalNX*, 1, 265.
11. Mirzaev, O. (2022). The role of ethics and aesthetics in the formation of entrepreneurial relations between individuals. *Science and innovation*, 1(B6), 125-130.